

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 610 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLİYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
DEHQON XO'JALIKLARIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA UNING BAHOLASH USULLARI.....	553
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY NATIJADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	557
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING ORTIB BORISHI JAHON MIQYOSIDA JORIY ETILAYOTGAN BUSINESS READY REYTINGIDAGI BAHOLASH NATIJALARIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA.....	562
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.....	570
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI MATERIALLAR ISHLAB CHIQUVISHDA SANOAT CHIQINDILARNI FOYDALANISHNING DUNYO VA O'ZBEKISTON MIQYOSIDAGI HOLATI	574
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
KORXONALAR ISHLAB CHIQUVISH POTENSIALINING XUSUSIYATLARI VA UNDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	578
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	583
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE	588
Jalqasbayev Sultanbek Tayrbek uli	
KREATIV TURIZMDA YANGI TAJRIBALAR YARATISH: IJODIY KLASTERLAR, MAHALLIY HUNARMANDCHILIK VA IMMERSIV TEXNOLOGIYALAR ROLI	593
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI EKSPORT SALOHIVATINI BOSHQARISHNING ZARURIVATI VA AHAMIYATI	599
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY MAHSULOTLAR	605
Nazarova Umida Mamadali qizi	



O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIYAVIY MAHSULOTLAR

Nazarova Umida Mamadali qizi

Bank-moliya akademiyasi doktoranti

«O'zsanoatqurilishbank» ATB Bosh mutaxassisi.

Email: u.nazarova@sqb.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolar sharoitida O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" va "yashil moliyalashtirish" tizimining rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarini uyg'unlashtirish zaruriyati O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasida muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Tadqiqotda yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, GEFF dasturi, yashil qishloq xo'jaligini mikromoliyalashtirish va yashil lizing kabi moliyaviy vositalarning mazmuni hamda amaliy qo'llanilishi yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va past uglerodli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar ko'rib chiqiladi. Yashil moliya bozorining kengayishi, normativ-huquqiy baza takomillashuvi va innovatsion fintech echimlarining qo'llanilishi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil moliya, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, GEFF, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror rivojlanish, ekologik moliyalashtirish, past uglerodli iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik.

Abstract. This scientific thesis analyzes the factors influencing the adoption and popularity of digital financial services (DFS) in the context of Uzbekistan. The main focus is placed on the interaction of technological, economic, social, legal, and psychological factors. The study also examines the development of digital infrastructure, internet penetration, mobile payment systems, the emergence of fintech companies, and recent changes in government policy. The research findings demonstrate that the widespread use of digital financial services is closely linked to the population's digital literacy, trust level, infrastructure quality, and the improvement of the regulatory framework.

Keywords: digital financial services, adoption, fintech, payment systems, financial inclusion, technological infrastructure, digital economy.

Аннотация. В данном научном тезисе проанализированы факторы, влияющие на распространённость цифровых финансовых услуг (ЦФУ) на примере Узбекистана. Основное внимание уделено взаимному воздействию технологических, экономических, социальных, правовых и психологических факторов. Также рассмотрены развитие цифровой инфраструктуры, рост интернет-покрытия, внедрение мобильных платёжных систем, появление финтех-компаний и изменения в государственной политике в последние годы. Результаты исследования показывают, что распространённость цифровых финансовых услуг тесно связана с уровнем цифровой грамотности населения, степенью доверия, качеством инфраструктуры и совершенствованием законодательной базы.

Ключевые слова: цифровые финансовые услуги, распространённость, финтех, платёжные системы, финансовая инклюзия, технологическая инфраструктура, цифровая экономика.

KIRISH

Global miqyosda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning qisqarishi va atrof-muhitning ifloslanishi jadal kuchayib borayotgani barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy yondashuvlarni joriy etishni keskin talab qilmoqda. Xususan, iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini ta'minlash uchun kompleks moliyaviy, institutsional va texnologik choralar zarur. Markaziy Osiyoda eng tez rivojlanayotgan davlatlardan biri bo'lgan O'zbekiston ham o'zining uzoq muddatli

rivojlanish strategiyalarida ekologik barqarorlikni mustahkamlash, uglerod izini qisqartirish va iqtisodiyotning “yashil” modeliga bosqichma-bosqich o'tishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-son¹ qarori bilan tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini ‘yashil’ iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” ekologik xavflarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish bo'yicha davlat darajasidagi aniq ustuvorliklarni belgilab berdi. Ushbu strategiya ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik samarador texnologiyalarni keng joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholining ekologik ongini yuksaltirish hamda iqtisodiy o'sishning ijtimoiy-ekologik muvozanatini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amalda qo'llashda moliyalashtirish mexanizmlarining o'rni beqiyosdir. Chunki ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejankor infratuzilmalar, organik qishloq xo'jaligi va barqaror transport kabi yo'nalishlardagi loyihalar katta sarmoyaga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, so'nggi yillarda dunyo moliya bozorida “yashil” segmentning jadal kengayishi, mas'uliyatli investitsiyalarning ko'payishi va ekologik tashabbuslarni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining shakllanishi kuzatilmoqda. O'zbekiston ham mazkur jarayonlardan chetda qolmay, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, imtiyozli moliyaviy dasturlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda “yashil” loyihalarni keng moliyalashtirishni yo'lga qo'ymoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, yashil moliyalashtirish nafaqat ekologik muammolarni yumshatadi, balki iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini yaratadi, aholining farovonligini oshiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishning mustahkam poydevorini shakllantiradi. Shu bois mazkur tadqiqot O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyatini tahlil qilish, imkoniyatlar va mavjud cheklavlarni ilmiy asosda baholashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi va ekologik xavflarning kuchayib borishi sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar jahon ilmiy makonida alohida yo'nalishga aylandi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining dastlabki ilmiy asoslari B. Daly, R. Costanza va H. Daly kabi ekolog-olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular iqtisodiy o'sishning ekologik chegaralari mavjudligini, resurslardan ortiqcha ekspluatatsiya uzoq muddatli farovonlikni izdan chiqarishini ta'kidladi. R. Costanza o'zining ekologik iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlarida barqarorlikni faqat iqtisodiy natijalar bilan emas, balki ekologik xizmatlarning tiklanish qobiliyati bilan baholash zarurligini ilmiy asoslab berdi.

Yashil iqtisodiyotning zamonaviy nazariy asoslari OECD va UNEP hisobotlarida keng yoritilgan bo'lib, bu hujjatlar ekologik toza texnologiyalar, energiya samaradorligi va uglerod emissiyasini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy modeli global miqyosda targ'ib qildi. UNEP tomonidan tayyorlangan “Green Economy Report” xalqaro iqtisodiyot uchun yashil investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi rolini asoslab berdi. OECD ekspertlari esa energiya samaradorligi siyosatlarini, yashil soliq islohotlari va ekologik boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilgan.

Yashil moliyalashtirish bo'yicha zamonaviy akademik tadqiqotlar asosan investitsiyalarning uglerod emissiyasini kamaytirishga ta'siri, moliya bozorlari orqali ekologik transformatsiyani rag'batlantirish va yashil obligatsiyalar samaradorligini o'rganishga qaratilgan. R. Dorfleitner va L. Utz tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda yashil moliya instrumentlarining barqaror investitsiya portfellarini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek ekologik risklarni moliyaviy baholash mexanizmlarining takomillashgani yoritilgan. A. Flammer tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda esa yashil obligatsiyalar korporativ ekologik natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, energiya samaradorligi ko'rsatkichlari va chiqindilarni qisqartirish bo'yicha sezilarli natijalar yuzaga kelishi isbotlangan.

Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha xalqaro tadqiqotlar, xususan IEA (International Energy Agency) va IRENA tahlillari, yashil texnologiyalarga investitsiya global iqtisodiyot uchun strategik ustuvor yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi. IRENA hisobotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya sektori iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida trillionlab dollar investitsiyalarni jalb etmoqda. Ch. Hepburn boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi ekologik investitsiyalarning bandlikni oshirish, innovatsiyalarni tezlashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi afzalliklarini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilgan.

O'zbekiston bo'yicha ilmiy adabiyotlar ham so'nggi yillarda boyib bormoqda. A. Abdurahmonov va M. Xolmatov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining institutsional asoslari, energiya samaradorligi islohotlari va ekologik boshqaruv siyosatlarini tahlil qilingan. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston bo'yicha

1 <https://lex.uz/docs/-4539502>



tayyorlagan tahliliy hisobotlari yashil moliyalashtirish infratuzilmasini shakllantirish, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari samaradorligini baholash va bank sektorining ekologik risklarni boshqarish qobiliyatini mustahkamlash masalalariga e'tibor qaratadi. Yashil obligatsiyalar bo'yicha Markaziy Bank hamda Moliya vazirligi tomonidan tayyorlangan tahlillar davlatning birlamchi emissiyasi mintaqada innovatsion yondashuv bo'lganini ko'rsatadi.

Xalqaro darajada yashil kreditlar bo'yicha Fulton, McDonald, Weber va Scholz kabi olimlar ekologik mezonlarga asoslangan kreditlash tizimining iqtisodiy faoliyatga ta'sirini o'rgangan. Ular yashil kreditlar emissiyani qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish va korxonalarni ekologik javobgarlikka undashda samarali vosita ekanini ilmiy asosda isbotlaganlar. Sug'urtaning ekologik risklarni kamaytirishdagi rolini tahlil qilgan G. Mills, B. Barnett va J. Michelman kabi tadqiqotchilar ekologik risklar chuqurlashayotgan sharoitda yashil sug'urta mahsulotlarining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatgan.

O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasi bo'yicha BMTTD, FAO va GCF tomonidan tayyorlangan amaliy hisobotlar mamlakatning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi salohiyatini, qishloq xo'jaligi, energetika va infratuzilma sektorlarida yashil investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni chuqur tahlil qiladi. Bu manbalar O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning qo'llanishi kengayib borayotganini, ayniqsa YTTBning GEFF dasturi, yashil kreditlar va xalqaro grantlar orqali tashkil etilayotgan ko'plab ekologik loyihalar barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish jarayoniga oid ma'lumotlarni xalqaro tashkilotlar hisobotlari, milliy statistika bazalari va bank sektorining ochiq moliyaviy ko'rsatkichlari orqali yig'ishga asoslandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tendensiyalarni aniqlash, indikatorlar dinamikasini baholash hamda mavjud moliyaviy instrumentlarning samaradorligini solishtirish orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog'liq zamonaviy muammolar iqtisodiyotning barcha darajalarini qamrab oluvchi kompleks yechimlarni talab qiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida barqaror rivojlanish siyosatini faol ilgari surmoqda. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. "Yashil moliyalashtirish" ekologik mas'uliyat va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy mahsulotlar tizimi bo'lib, ushbu maqsadlarga erishishning asosiy vositasidir. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini oshirmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishi aholining barchasini birdek tashvishga solayotgani aniq.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi.

Yashil iqtisodiyot — ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotdir. Bu ekologik manfaatlarga va kengroq ma'noda ekologik barqarorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan sarmoyadir. Yashil moliya banklar, mikrokredit, sug'urta tashkilotlari va investitsiya kompaniyalaridan davlat, xususiy va notijorat sektorlariga yo'naltiriladigan moliyaviy oqimlarni barqaror iqtisodiy rivojlanishga safarbar etishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda jahon moliya bozorining "yashil" segmenti hamda mas'uliyatli investitsiyalar barqaror rivojlanishning global va milliy maqsadlariga erishish va "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, ekologik barqaror konturlarni shakllantirish hamda xalqaro moliya tizimining rivojlanish istiqbollari belgilab bermoqda.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish ekologik jihatdan toza va samarador bo'lgan loyihalar hamda tashabbuslarni moliyalashtirishning barcha shakllarini o'z ichiga oladi. Ushbu moliyalashtirish ekologik xavfli bo'lmagan texnologiyalarni qo'llash, energiya tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va boshqa turdagi yashil tashabbuslarga yo'naltiriladi. Yashil moliya mahsulotlari turlicha bo'lishi mumkin, jumladan:

1. Yashil obligatsiyalar. Yashil obligatsiyalar atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan qarz qimmatli qog'ozlaridir. O'zbekiston Markaziy Osiyoda davlat yashil obligatsiyalarini chiqargan birinchi davlat bo'ldi. Yig'ilgan mablag' quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, barqaror transport va kommunal infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltiriladi.

2. Yashil kreditlar. “O‘zsanoatqurilishbank”, “Asakabank” va “Ipoteka-bank” kabi mahalliy banklar tadbirkorlik subyektlari hamda jismoniy shaxslarga energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun ixtisoslashtirilgan yashil kreditlarni taklif qilmoqda. Ushbu kreditlar quyosh panellarini o‘rnatish, binolarni energiya samarador qilib modernizatsiya qilish, ekologik toza qishloq xo‘jaligi texnikasini xarid qilish va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur kreditlar ko‘pincha pasaytirilgan foiz stavkalari va maslahat xizmatlari bilan birga taqdim etiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, joriy yilning so‘nggiga qadar O‘zbekiston yashil va past uglerodli rivojlanish loyihalari uchun xalqaro tashkilotlar va moliya institutlaridan qariyb 250 million dollar jalb etishni rejalashtirmoqda. Mablag‘lar grantlar va imtiyozli kreditlar ko‘rinishida taqdim etiladi. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) 200 million yevro ajratadi, yana 10 million dollar Jahon banki tomonidan ajratilishi ko‘zda tutilgan.

3. GEFF (Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish fondi). YTTB ko‘magida O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesga yo‘naltirilgan GEFF dasturi amalga oshirilmogda. Dastur energiya tejamkor texnologiyalar katalogiga kirish imkonini, kreditlardan foydalanish imkoniyatini, texnik yordamni va loyihalarni amalga oshirishda xarajatlarning qisman qoplanishini ta’minlaydi.

4. Yashil qishloq xo‘jaligini mikromoliyalashtirish. Fermerlar va qishloq xo‘jaligi kooperativlari organik dehqonchilik, tomchilatib sug‘orish va agroo‘rmonchilik kabi barqaror amaliyotlarni joriy etishlari uchun mikrokreditlar va grantlar ajratiladi. Ushbu dasturlar FAO, BMTTD va Yashil iqlim jamg‘armasi (GCF) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

5. Yashil lizing. Energiyani tejaydigan uskunalar hamda ekologik toza transport vositalari lizingi korxonalar va aholi uchun katta boshlang‘ich sarmoya talab qilmasdan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini yaratadi.

Yashil iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va uni doimiy qo‘llab-quvvatlash davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga istiqbolli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash ham muhimdir. Xususan, Islom yashil moliyasini (sukuk) rivojlantirish kelajakda ekologik loyihalarga investitsiya jalb qilish uchun qo‘shimcha kanal bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy fintech mahsulotlari — mobil ilovalar va elektron bank xizmatlari orqali mijozlarning “yashil” xatti-harakatlarini rag‘batlantirish, ongli iste’molni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati mavjud.

Tegishli moliyaviy mexanizmlarsiz yashil iqtisodiyotga o‘tish mumkin emas. O‘zbekistonda obligatsiyalar, kreditlar, grantlar va sug‘urta mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli yashil moliya bozori shakllanmogda. Ushbu vositalarning kengayishi, tadbirkorlar va aholiga ochiqqligi, davlat hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish va uglerod izini qisqartirish jarayonlarining ajralmas omiliga aylanib bormogda. Yashil obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar, xalqaro moliyaviy institutlar ko‘magidagi dasturlar hamda qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha investitsiyalar iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasiga sezilarli hissa qo‘shmogda. Mavjud mexanizmlarning bosqichma-bosqich kengayishi milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishni yanada rivojlantirish uchun moliyaviy instrumentlarning shaffofqligi va kirishuvchanqligini oshirish, bank sektorida ekologik risklarni baholash standartlarini kuchaytirish, yashil texnologiyalar bo‘yicha kreditlash shartlarini yanada qulaylashtirish va raqamli platformalar orqali ekologik ongni rag‘batlantirish zarur. Shuningdek, xalqaro grantlar hamda islomiy moliyalashtirish vositalaridan keng foydalanish, milliy normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va mahalliy moliyaviy institutlar salohiyatini oshirish yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.”gi Qarori, 02.12.2022.
2. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy Report. – Geneva, 2011.
3. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Green Economy Financing Facilities (GEFF): Annual Report. – London, 2023.
4. World Bank. Uzbekistan: Transition to Low-Carbon Development. – Washington DC, 2022.
5. OECD. Green Finance and Investment: Mobilising Bond Markets for a Low-Carbon Transition. – Paris, 2020.
6. Spot.uz: “O‘zbekistonning ‘yashil iqtisodiyot’ga o‘tishi bo‘yicha davlat strategiyasi ishlab chiqiladi.” Yangilik maqolasi. – Toshkent, 2020.
7. <https://sqb.uz/uz/greenbanking/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100